



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

2021-yil 15 noyabrda № 14/04-06/1-9445 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko'chasi, 107-B

Buxoro Davlat Universiteti

**Texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari
qismida o'tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo'yicha
XULOSA**

Loyiha nomi

Buxoro Davlat universiteti hududida 2700 o'rinni
o'quv binosi, quyosh energiyasi va fizika ilmiy-
tadqiqot laboratoriya binosi, zamonaviy axborot
resurs markazi, yosh tadqiqotchi olimlar uchun
oilaviy turar joy binosini qurish.

**Buyurtmachi arizasining
raqami va sanasi**

2021yil 1 noyabrdagi 01-05/06-0156-sonli ariza.

Buyurtmachi

Buxoro Davlat Universiteti.

**Loyihani amalga oshirish
uchun asos**

Buxoro Davlat universiteti kengashining 2021 yil
4-martdagি 12-yig'ilishi bayoni.

Moliyalashtirish manbai

Buxoro Davlat universitetining byudjetdan tashqari
mablag'lari hisobidan.

**Loyiha hujjatlari bo'yicha
ekspert xulosasi**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi
«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUKning
2021 yil 25 oktabrdagi 21946-sonli yig'ma ekspert
xulosasi.

**Obyektning chegaraviy
narxi**

76 946 877 558 so'm QQS bilan,
66 910 328 311 so'm QQSsiz.

Ekspertiza o‘tkazish uchun asos

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 yanvardagi PQ-3464-sonli va 2018 yil 20 fevraldaggi PQ-3550-sonli qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK (keyingi o‘rinlarda Markaz deb yuritiladi) “Buxoro Davlat universiteti hududida 2700 o‘rinli o‘quv binosi, quyosh energiyasi va fizika ilmiytadqiqot laboratoriya binosi, zamonaviy axborot resurs markazi, yosh tadqiqotchi olimlar uchun oilaviy turar joy binosini qurish” obyekti bo‘yicha texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari qismida o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha e’tirozlar mavjud emasligi va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o‘tkazish mumkinligini ma’lum qiladi.

O‘z navbatida, buyurtmachi davlat xaridlarini maxsus axborot portalida, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy veb-saytlarda tender (tanlov) o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish orqali qurilish pudrat tashkilotlarini keng jalg etilishini ta’minlashi kerak.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o‘tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo‘yicha aniqlanadi.


O‘z navbatida buyurtmachi haqqoniylik, ratsionallik, iqtisod tamoyillariga rioya qilish, moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik va korrupsiyaga yo‘l qo‘yimasligini ta’minlashga javobgardir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagagi 302-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risidagi Nizom”ning 95-bandiga muvofiq Monitoring buyurtmachi va pudratchi tomonidan tomonlarning tanlov savdolari shartlarini bajarishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi”ga har oyda taqdim etiladigan axborotlarni tahlil qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, buyurtmachi hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasiga qadar har oyda markazning qurilish@expertcenter.uz elektron pochtasiga tomonlar tender savdolarining shartlarini bajarish to‘g‘risidagi ma’lumotni ilovadagi namunaga muvofiq yuboradi.

Ilova: I-varaqda “Tomonlar tender savdolarining shartlarini bajarish to ‘g’risida ma ’lumot” taqdim etish namunasi.

M. Allabergenov




A handwritten signature in blue ink, appearing to read "Allabergenov". It consists of several loops and strokes, with a horizontal line underneath it.

A. Abdusalamov



A handwritten signature in blue ink, appearing to read "Abdusalamov". It has a more fluid, cursive style than the first signature.

L. Do’smuhamedov



A handwritten signature in blue ink, appearing to read "Do’smuhamedov". It is written in a stylized, expressive hand.

N. Pak



A handwritten signature in blue ink, appearing to read "Pak". It is a simple, bold signature.

Приложение к заключению от "15" 11 2021 г. №

**ИНФОРМАЦИЯ
об исполнении условий тендерных торгов по строительству и реконструкции (капитального ремонта) объектов по состоянию на _____._____.20____ г.**

№	Наименование объекта	Номер и дата протокола по утверждению победителя		Срок ввода		Подрядная организация	Выполнение подрядных работ			Финансирование подрядных работ			(млн. сум)
		Согласно договора	согласно графика	факт	% от графика		% от общей суммы договора	согласно графика	факт	% от общей суммы договора	согласно графика	факт	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14

Примечание: Заказчик ежемесчно до 10 числа месяца, следующего за отчетным периодом, представляет ГУП "Центр комплексной экспертизы проектов и импортных контрактов при Министерстве экономического развития и сокращения бюджета Республики Узбекистан" путем направления ИХ на электронную почту: qatilish@expertcenter.uz

Руководитель заказчика

подпись Ф.И.О.